



Jurnal websayti:

<https://orientalstudies.uz/index.php/os>

## MILLIY IDENTLIKNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANТИRISHDA ARAB MA'RIFATPARVARLARINING ROLI

*Xilola Yuldasheva*

*Filologiya fanlari nomzodi,*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

### MA QOLA HA QIDA

**Kalit so‘zlar:**

ma'rifatparvarlar, arab adabiyoti, arab-musulmon madaniyati, arab identikligi.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada arab jamiyatlarida ma'rifatparvarlar ta'lim, madaniyat, fan va falsafa sohalarida, islomiy ցivilizatsiyaning gullab-yashnashida qanday muhim rol o'yaganliklari, ma'rifatparvarlarning ijtimoiy, madaniy va ilmiy jihatdan qanday ta'sir ko'rsatganliklari va ular merosining bugungi kunda qanday ahamiyatga ega ekanligi haqida batafsil ma'lumot beriladi. Shuningdek, arab-musulmon ցivilizatsiyasi tarixining turli bosqichlarida uning madaniy va ilmiy rivojlanishiga arab ma'rifatparvarlarining qo'shgan hissasini tahlil qilish va baholash, arab ma'rifatparvarlarining asosiy guruhlari bo'lgan olimlar, faylasuflar, adiblar va boshqalar hamda ularning faoliyat sohalarini ko'rib chiqish; falsafa, adabiyot, tabiatshunoslik, tibbiyat, geografiya va boshqa sohalarning rivojlanishida ma'rifatparvarlarning rolini aniqlash; arab ma'rifatparvarlarining qarashlari va qadriyatları evolutsiyasini tarixiy sharoit bilan bog'liq holda tahlil qilish, ma'rifatparvarlar faoliyatining o'ita asrlar va yangi davrda arab-musulmon madaniyati va ilm-fani taraqqiyotiga umumiyligi ta'sirini baholash, shuningdek, arab ցivilizatsiyasi taraqqiyotidagi eng muhim omil sifatida arab ma'rifatparvarlarining rolini har tomonlama o'rganishga qaratildi.

## THE ROLE OF ARAB INTELLECTUALS IN THE FORMATION AND DEVELOPMENT OF NATIONAL IDENTITY

*Khilola Yuldasheva*

*Candidate of Philological Sciences,*

*Tashkent State University of Oriental Studies*

*Tashkent, Uzbekistan*

**ABOUT ARTICLE**

**Key words:** enlighteners, Arabic literature, Arab-Muslim culture, Arab identity

– **Abstract:** This article provides detailed information on how enlightened people in Arab societies played an important role in the fields of education, culture, science and philosophy, in the flourishing of Islamic civilization, how enlightened people influenced them socially, culturally and scientifically, and how important their legacy is today. Also, to analyze and evaluate the contribution of Arab intellectuals to its cultural and scientific development at different stages of the history of Arab-Muslim civilization, to review the main groups of Arab intellectuals, scientists, philosophers, writers, etc., and their fields of activity; determining the role of enlighteners in the development of philosophy, literature, natural science, medicine, geography and other fields; The analysis of the evolution of the views and values of the Arab intellectuals in relation to historical conditions, the assessment of the general impact of the activities of the intellectuals on the development of Arab-Muslim culture and science in the Middle Ages and the modern period, as well as the comprehensive study of the role of the Arab intellectuals as the most important factor in the development of Arab civilization was focused on .

## **В ФОРМИРОВАНИИ И РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ РОЛЬ АРАБСКИХ ПРОСВЕТИТЕЛЕЙ**

**Хилола Юлдашева**

кандидат филологических наук,  
Ташкентский государственный университет востоковедения  
Ташкент, Узбекистан

### **О СТАТЬЕ**

#### **Ключевые слова:**

Просветители, арабская литература, арабо-мусульманская культура, арабская идентичность

**Аннотация:** В этой статье просветители в арабских обществах сыграли важную роль в области образования, культуры, науки и философии, в расцвете исламской цивилизации, какое влияние просветители оказали на социальное, культурное и научное, и что такое о значении их наследия сегодня будут представлены подробности. Также проанализировать и оценить вклад арабских интеллектуалов в ее культурное и научное развитие на разных этапах истории арабомусульманской цивилизации, рассмотреть основные группы арабских интеллектуалов, ученых, философов, писателей и т.д. и их области деятельности; определить роль просветителей в развитии философии, литературы, естествознания, медицины, географии и других областей; Проанализировать эволюцию взглядов и ценностей

арабской интеллигенции применительно к историческим условиям, оценить общее влияние деятельности интеллектуалов на развитие арабо-мусульманской культуры и науки в средние века и современную эпоху., , а также роль арабской интеллигенции как важнейшего фактора развития арабской цивилизации, ориентированной на всестороннее обучение.

## KIRISH

Ziyolilar jamiyatda sinfiy manfaatlar va siyosiy guruhlarning rivojlanishini eng ongli, eng qat’iy va eng to‘g‘ri aks ettingani va ifodalagani uchun ham ziyolilar deb ataladi. Ziyolilarni ilmiy jihatdan o‘rganish sohasidagi taniqli mutaxassis, falsafa fanlari doktori, professor V.M.Mejuyev ta’kidlaganidek, Ziyoli jamiyatda har doim ma’lum bir bilim va g‘oyalar tizimining tashuvchisi va targ‘ibotchisi vazifasini bajaradi. Ziyolilarlardan siyosatchi chiqishi xavfli, “chunki u hokimiyatni o‘z mafkurasi bilan aynanlashtirishga moyil” bo‘ladi<sup>1</sup>.

Milliy identiklikni shakllantirishda ziyolilar va ma’rifatparvarlar muhim rol o‘ynaydi. “Turli davrlar odamlari o‘zaro qanchalik farq qilmasinlar, ular o‘zlariga o‘zlari haqida bir xil savollarni berishadi – ular harakat qilish uchun o‘zlari haqida qanday o‘ylash kerakligini bilishni xohlashadi”, – deb yozgan K.Manhey<sup>2</sup>. “Biz kimmiz?” degan savolga javob individual va jamoaviy o‘lchovlarga ega. Milliy identiklikni anglash va shakllantirish jarayonida ma’rifatparvarlarning ishtiroki alohida ahamiyatga ega.

Olimlarning ta’kidlashicha, “milliy modernga tanish bo‘lgan identikliklar global ijtimoiy-siyosiy va intellektual makonlarda tobora kam natija bermoqda”<sup>3</sup>, ammo shu bilan birga, postmodernizm nazariyalari modernga global muqobil yaratmaydi, hozirgi jamiyatlarni tavsiflash uchun universal kod taqdim etmaydi: “global yoki kechki zamonaviy loyihasida ilgari hukmron bo‘lgan iqtisodiy va ijtimoiy millatlar va industrial-sinfiy jamiyatiga xos bo‘lgan identiklikni shakllantirish va tavsiflash usullaridan mafkuraviy jihatdan neytralroq bo‘lgan madaniy identikliklarga o‘tilayotganini kuzatish mumkin. Odamlar va jamiyatlar o‘rtasidagi tafovutlarni asosan madaniyat kategoriyalari orqali o‘ylash va tuzish boshlandi. Shunday qilib, identiklik shakllantirish maydonidagi o‘yin yana ma’rifatparvarlar tomoniga o‘tmoqda”<sup>4</sup>.

<sup>1</sup>В. М. Межуев. История. Цивилизация. Культура. Опыт философского истолкования. СПбГУП. Санкт-Петербург. 2011г. С 440. 21 стр.

<sup>2</sup> Манхейм Карл. Эссе о социологии культуры // Манхейм Карл. Избранное. Социология культуры. М.–СПБ., 2000. С. 95.

<sup>3</sup> Мартянов В. С. Конфликт идентичностей в политическом проекте модерна: мультикультурализм или ассимиляция? // Идентичность как предмет политического анализа. Сборник статей по итогам Всероссийской научно-теоретической конференции (ИМЕМО РАН, 21–22-октября 2010 г.) / Отв. ред. И. С. Семененко, Л. А. Фадеева. М.: ИМЕМО РАН, 2011. С. 36–42

<sup>4</sup> Мартянов В.С. Конфликт идентичностей в политическом проекте модерна: мультикультурализм или ассимиляция? // Идентичность как предмет политического анализа. Сборник статей по итогам Всероссийской

Arab dunyosi o‘zining ko‘p asrlik tarixi davomida jahon ilm-fani, madaniyati va қивилизацыйаси rivojiga ulkan hissa qo‘shti. Arab-musulmon қивилизацыйасининг aqliy va ma’naviy merosini shakllantirishda ma’rifatparvarlar—olimlar, mutafakkirlar, yozuvchilar, ilohiyotshunoslar asosiy rol o‘ynadi. Arab ma’rifatparvarlari o‘rta asrlarda – ilm-fan va madaniyat yuksalishining, Nahda davrida—uyg‘onishning, yangi davrda esa milliy ozodlik kurashining harakatlantiruvchi kuchi bo‘ldi.

Islom dini qaror topib, fath qilingan hududlar kengayganidan keyingi ilk asrlarda arab-musulmon madaniyatida misli ko‘rilmagan yuksalish kuzatildi. Poytaxti Bag‘dod bo‘lgan Abbosiylar xalifaligi (750–1258) butun musulmon dunyosi olimlarini o‘ziga jalg‘ qildi. Abbosiylar davri ma’rifatparvarlari arab қивилизаційасининг shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynadi. VIII–XIII asrlarni qamrab olgan bu davrda ma’rifatparvarlar fan, falsafa, adabiyot, me’morchilik sohalariga va madaniyatning boshqa jabhalariga anchagina ta’sir ko‘rsatdi. Xalifalar saroyida o‘rta asrlarning eng yirik intellektual markazi bo‘lgan hamda o‘z davrining atoqli olim va mutafakkirlarini birlashtirgan “Baytul hikma” (“Donishmandlar uyi”) tashkil etildi. “Donishmandlar uyi” VIII asr o‘rtalarida xalifa Al-Ma’mun tomonidan Bag‘dodda tashkil etilgan o‘ziga xos akademiya va kutubxona edi. Bu markaz tadqiqotlar, jumladan, qadimgi yunon, hind va fors tilidagi ilmiy asarlarning arab tilidagi matnlari ustida ish olib borish uchun o‘sha davrning eng yaxshi olim va tarjimonlarini birlashtirgan. “Baytul hikma”da matematika, astronomiya, tibbiyot, falsafa, geografiya, kimyo kabi turli sohalarda izlanishlar olib borilgan. Ushbu markaz turli madaniyat va қивилизаційалар o‘rtasida bilimlar tarqatilishi va o‘zaro almashinishiga sharoit yaratgan. “Donishmandlar uyi”da amalga oshirilgan kashfiyotlar va izlanishlar fan va ta’limning keyingi rivojiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Abbosiylar davri ma’rifatparvarlari antik davr merosini asrab-avaylash va ko‘paytirishda, jahon ilm-fani va madaniyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. “Donishmandlar uyi” olimlarining nihoyatda zo‘r mehnatisiz o‘rta asrlar arab-musulmon қивилизацыйасининг shakllanishini va jahon ilm-faniga qo‘shti hissasini tasavvur etib bo‘lmaydi.

Arab Uyg‘onish davri — “An-Nahda”, ya’ni milliy yuksalish harakati — XIX asr va XX asr boshlari bo‘lib, bu davrda arab ma’rifatparvarlarining ijodi gullab-yashnadi. Bu—butun arab jamiyatini qamrab olgan islohotlar va yangilanishlar davri edi. Ma’rifatparvarlar bu yangilanishning g‘oyaviy ilhomlantiruvchisi va harakatlantiruvchi kuchiga aylandi. Mashhur ma’rifatparvar mutafakkirlar — Rifa’a at-Taxtaviy, Jamoliddin al-Afg‘oniy, Muhammad Abduh – ta’lim, fan va madaniyat sohalarida islohotlar o‘tkazish orqali an’anaviy jamiyatni yangilashga intildilar. Ular arab va Yevropa madaniyatini oqilona asosda yaqinlashtirish tarafidori bo‘lib,

G‘arb yutuqlarini o‘rganish zarurligini ta’kidladilar. Ular Yevropa adabiyotining yangi janrlari bo‘lgan roman, qissa, hikoya, zamonaviy dramaturgiyani joriy qilib, arab adabiyotini boyitdilar. Yangi adabiyotning yorqin namoyandalari Rifa’a at-Taxtaviy, Muhammad Husayn Haykal, Jamoliddin al-Afg‘oniy, Ahmad Shavqiy, Xalil Mutron, Ilya Abu Modiy erkin fikrlarini kiritish orqali arab adabiyotini yangiladilar.

Ma’rifatparvarlar arab birligi g‘oyalarini ilgari surgan holda milliy identiklikning shakllanishiga katta hissa qo‘shdilar. Arab milliyatchiligining atoqli mafkurachisi “Arab xalqi – bir millat” kitobining muallifi Nikola Haddod edi (u yana arab olamida Niqula Shahada taxallusi bilan ham tanilgan (“نقولا شهادة”)<sup>5</sup>). Ma’rifatparvar olimlar arab tilini milliy identiklikning eng muhim mezoni, deb hisoblaganlar. Ularning sa’y-harakatlari bilan arab tili yangi sohalarda – matbuot, publitsistika, badiiy adabiyotda – o‘z o‘rniga ega bo‘ldi.

Arab ma’rifatparvarlari Nahda davrida an’anaviy jamiyatni yangilash yo‘lini ochib berdilar, milliy g‘oya va yangi adabiyotga asos soldilar. Ularning ma’rifiy faoliyatisiz zamonaviy arab dunyosining madaniy va siyosiy tiklanishini tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Misr, Livan va Suriyada XIX asrning ikkinchi yarmida kitob chop etish keng tarqaldi, nashriyotlar soni ko‘paydi. Ular o‘z faoliyatini adabiy meros, Qur’on sharhlari, tarixiy asarlarni nashr etishdan boshladilar. Qadimgi qo‘lyozmalarning ilk bosma matnlari, masalan, Ibn Xaldunning “Muqaddima”si paydo bo‘ldi. 1886-yilda esa Ash-Shahristoniyning “Dinlar va mazhablar kitobi” nashr etildi. Butrus al-Bustoni 1876-yilda G‘arb ilmining darajasiga mos keladigan asosiy bilimlar to‘plami – mashhur “Dairat al-maorif” ençiklopediyasini yaratishga harakat qildi. Bustoni vafotidan keyin uning o‘g‘li Salim al-Bustoni ençiklopediya ustida ishslashni davom ettirdi va 1900-yilda uning 10 ta jildini nashr ettirdi, lekin to‘liq nashri chiqmay goldi.

G‘arb mustamlakachilarining arab mamlakatlariga bostirib kirishi, odatda, G‘arb қivilizatsiyasi elementlarining barcha hayot sohalariga kirib borishida dastlabki bosqich hisoblanadi, bu esa chuqur madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar keltirib chiqaradi. Mazkur bosqin natijasida arab mamlakatlari an’anaviy jamiyatning feodal asoslaridan yangi – kapitalistik munosabatlarga o‘tish yoqasiga keldi. Mustamlakachilik sharoitida arab xalqlari ilk bor o‘z madaniyati va kundalik hayotidagi ko‘p asrlik an’analarni himoya qilish zarurligini anglab yetdilar. Ma’rifatparvarlarning sa’y-harakatlari bilan jamiyatda vatanparvarlik tuyg‘ulari kuchaydi, milliy ozodlik harakati mafkurasi vujudga keldi.

Arab davlatlarining Usmoniyalar va Yevropa davlatlari hukmronligidan mustaqil bo‘lish uchun kurashi XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida avj olgan paytda arab

<sup>5</sup> Hourani A., Shehadi N. (eds.) The Lebanese in the World: A Century of Emigration. / Center for Lebanese Studies. London, 1992. 68 rr.

ma'rifatparvarlari tarixida yangi sahifa ochiladi. Bu davrdagi arab dunyosida milliy ma'rifatparvarlar mustaqil ijtimoiy guruh sifatida o'zlarini namoyon qildilar va ko'pchilik arablar ongi va kayfiyatining ifodachisiga aylandilar.

Misrlilarning milliy ongini yuksaltirishda yozuvchi va dramaturg Tavfiq al-Hakim katta rol o'ynadi. U o'z asarlarida keskin ijtimoiy muammolarni ko'tardi, islohotlar qilishga, qoloqlikka qarshi kurashga chaqirdi. Misrning o'sha paytdagi rahbari Jamol Abdunosir 1956-yilda Suvaysh kanalini davlat mulkiga aylantirgach, arab dunyosida nihoyatda mashhur bo'lib ketdi, imperializmga qarshi harakatning taniqli namoyandalaridan biriga, mustamlakachilikni tugatish uchun kurashuvchi va umumarab sotsialistik inqiloblarining yetakchisiga aylandi. Jamol Abdunosir Misr sotsialistik inqilobini eksport qilish va panarabizmni targ'ib qilish uchun mafkuraviy vosita sifatida misrlik o'qituvchilarni Marokash, Jazoir, Liviya, Sudan va Ko'rfaz davlatlari kabi arab dunyosining boshqa qismlariga yuborish siyosatidan foydalandi. Ushbu loyiha uchun yumshoq kuch juda muhim edi. Jamol Abdunosir Misr gazetalarining xorijda tarqatilishi hamda "Arablar ovozi" kabi radioeshittirishlardan arab aholisini bevosita o'z ishiga jalg qilishda foydalandi. O'sha paytda Qohirada nashr etilgan bosma ommaviy axborot vositalari va radioeshittirishlar orqali mintaqadagi millionlab arablar bilan bevosita muloqot qilingan, umumarab birdamligi va sotsialistik ittifoq g'oyasi ilgari surilgan; ularda madaniy va siyosiy tusdagi radikal panarabizmni kuchaytirish va targ'ib qilish uchun qo'shiqchi Ummu Kulsum kabi Misr madaniyat sanamlaridan ko'p foydalanilgan.

Nosirchilarning sotsialistik inqilobiga nisbatan optimizm kuchayib borayotgan 1950-yillarda adabiyot va adabiy tanqid siyosat bilan kesishib, Qohira madaniy va siyosiy ijod markaziga hamda qizg'in bahs-munozaralar maydoniga aylandi. Marokashlik tanqidchi va yozuvchi Muhammad Berrada o'zining "Hech qachon takrorlanmaydigan yoz" nomli xotiralarida 1950-yillar boshida Qohirada o'tkazgan besh yili haqida fikr yuritadi va bu yillar uning aqliy rivojlanishida asosiy omil bo'lganini ta'kidlaydi<sup>6</sup>. O'sha paytda Qohira arab dunyosidagi yangi adabiy harakatlarning markazi bo'lgan va Muhammad Berrada u yerda ko'plab atoqli arab yozuvchilari, shoir va yozuvchilari, jumladan, Najib Mahfuz, Mixail Nuayme, Mahmud Messadiy, Yusuf Idris, Suhayl Idris va Salah Jahin bilan uchrashganini tasvirlaydi.

Misr bo'y lab 1919–1921-yillarda tarqalgan ma'rifatparvarlarning mustamlakachilikka qarshi norozilik chiqishlari protektoratni saqlab qolishning iloji yo'qligini tushunib yetgan Londonni Qohira bilan munosabatlar paradigmaсини qayta ko'rib chiqishga majbur qildi. Natijada 1922-yil 28-fevral kuni Misr cheklangan suverenitetga ega bo'ldi, 1923-yil 19-aprelda esa

<sup>6</sup> محمد برادة. مثل صيف لن يتكرر. وزارة الثقافة - الهيئة العامة لقصور الثقافة. 1999م. 235ص. ص. 37

mamlakatning birinchi konstitutsiyasi qabul qilindi. Garchi ko‘rilgan chala choralar radikal milliyatchilarining noroziligiga uchragan bo‘lsa-da, ammo jamiyatda hukmronlik qilayotgan mo‘tadil doiralar vakillarini batamom qanotlantirdi. Mustaqillik uchun kurash ma’rifatparvarlar uchun asosiy munozara mavzusi bo‘lmay qoldi, uning o‘rnini boshqa masalalar, jumladan, Misrning kelajakdagi taraqqiyot yo‘lini topish egalladi.

Natijada Birinchi va Ikkinchini jahon urushlari o‘rtasidagi davrda G‘arb yo‘lini tanlashning maqsadga muvofiqligini, Misrning Yevropaga yaqinligini isbotlashga urinishlar ma’rifatparvarlar orasida kuchaydi. Bunday harakatlar bir qator omillar bilan bog‘liq edi. Birinchidan, Misrning o‘sha davrdagi dunyoviy ma’rifatparvarlarining mutlaq ko‘pchiligi yo‘ G‘arbda, yo‘ o‘tgan davrlarda mamlakatda tashkil etilgan G‘arb uslubidagi muassasalarda ta’lim olgan ed<sup>7</sup>. Buning natijasida Sharq va Misr ma’rifatparvarlari G‘arb davlatlarining siyosiy institut va g‘oyalalarini o‘z xalqlarining taraqqiyoti uchun zarur hamda chinakam o‘rnak deb bildilar.

Ikkinchidan, XX asrning birinchi yarmida Misr shahrining qiyofasi ancha o‘zgardi, kundalik hayotda Yevropadan olingan texnika yutuqlari va moda yangiliklari ustunlik qildi. Mamlakatga G‘arb unsurlarining kirib kelish ko‘لامи shunchalik katta ediki, bu hol ma’rifatparvarlar vakillarini g‘arblashtirish muvaffaqiyatining sabablarini hamda misrliklar mentalitetidagi ularga yangi vogelikka osongina moslashish imkonini bergen xususiyatlarni izlashga undadi.

Uchinchidan, bir necha asr davom etgan chet el hukmronligidan so‘ng qisman bo‘lsa-da mustaqillikka erishilgani kelajakda bu qayg‘uli tajriba takrorlanishiga yo‘l qo‘ymaslikni eng muhim vazifaga aylantirdi. Hayot aynan Yevropa davlatlari moddiy-texnika bazasi va ijtimoiy-siyosiy institutlarini yangilab, rivojlanishda eng yaxshi natijalarni qo‘lga kiritgani uchun Osiyo va Afrika mintaqasidagi ulkan hududlarni o‘z hokimiyatiga bo‘ysundira olganini ko‘rsatdi. Bu haqiqatning shubhasizligi misrlik ma’rifatparvarlarning ko‘pchilagini G‘arb davlatlarining yo‘lini targ‘ib qilishga undadi.

Mamlakat ma’rifatparvarlarining G‘arbni Sharqdan ustun qo‘yuvchi elitasi bu masalaga boshqacha qaraydigan vatandoshlariga o‘z fikrlarining to‘g‘riligini isbotlashga bir necha marta urindilar. Ikki jahon urushi o‘rtasidagi davrda paydo bo‘lgan ko‘plab variantlar orasida ijtimoiy fikrdagi ikki qarama-qarshi oqim vakillari—liberal qanot yetakchisi Toha Husayn (1889–1973) hamda sotsializm targ‘ibotchisi Salama Muso (1880–1958) – taqdim etgan dalillar eng qiziq.

Toha Husayn fikricha, misrliklarning G‘arb va Sharqdagi qo‘shnilari bilan aloqalari har xil ekanligining sababi fikrlash tarzining mutlaqo o‘zgachaligidir. Butun tarix davomida Sharqning

<sup>7</sup> Левин З.И. Развитие общественной мысли на Востоке. Колониальный период. XIX–XX вв. М.: Наука, 1993. С. 26.

diniy tipdagi “al-aql ash-sharqiya” fikrlash tarzi G‘arbning ratsional tipdagi “al-aql al-g‘arbiya” fikrlash tarzi bilan raqobatlashib kelgan. Biroq, geografik Sharqning ba’zi mamlakatlari aql g‘alabasiga boshqalaridan ancha yaqin bo‘lgan. Toha Husaynning fikricha, Misr ular orasida alohida o‘rinni egallagan bo‘lib, u qadim zamonlardan buyon antik Yunoniston bilan aloqalari orqali yevropacha ratsionallikni o‘zlashtirgan va shu bois Misr ցivilizaცiyasini Sharq ցivilizaცiyasiga emas, balki Yevropa mamlakatlari bilan umumiy bo‘lgan O‘rtal Dengiz ցivilizaცiyasi guruhiga kiritish to‘g‘riroq bo‘ladi<sup>8</sup>.

Toha Husayn XX asrning 30-yillarida Misrdan tashqarida ham tanila boshladi, uning nomi va ijodi Yevropa ma’rifatparvarlariga ham ma’lum bo‘ldi<sup>9</sup>. Toha Husaynning “Misrda madaniyatning kelajagi” kitobi 1938-yilda nashrdan chiqdi. Bu kitobni ishonch bilan Misrda ta’lim va madaniyatni yangilash rejasi deb atash mumkin. Muallif kitobda o‘z pedagogik konsepsiyasining asosiy nazariy qoidalarini bayon etgan, arab pedagogikasida ilk bor shaxsni har tomonlama rivojlantirishning ahamiyati masalasini ko‘targan. Toha Husayn ta’lim tizimini tashkil qilish, boshqarish va rivojlantirish muammolariga to‘xtalib, ta’limni demokratlashtirish zarurligini ta’kidlaydi, ushbu vazifani bajarish yo‘llarini ko‘rsatadi. U ta’limni birlamchi zarurat deb hisoblaydi, uni insonning suv yoki havoga ehtiyoji bilan teng ko‘radi: “davlat milliy xavfsizlikni ta’minalashga qanchalik e’tibor qaratsa, ta’lim sohasiga ham shunchalik e’tibor qaratishi zarur”<sup>10</sup>. Uning nazarida, ta’limning maqsadi odamlarni kamolotga, boshqa xalqlar madaniyatini o‘rganishga undash, ularda bag‘rikenglikni tarbiyalash, millatning boshqalardan ajralib qolishiga qarshi kurashish hamda milliy o‘zligini saqlab qolishdir. Uning fikricha, ta’limning vazifasi muayyan bilimlarni berishgina emas, balki halollik, o‘z qadrini bilish, adolatparvarlik, insonparvarlik, kattalarni hurmat qilish, vatanni sevish kabi fazilatlarga ega bo‘lgan yuksak axloqli shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Arab publitsisti Salama Muso arab Sharqida sotsializmning eng nufuzli targ‘ibotchilaridan biri bo‘lib, Toha Husayndan farqli o‘laroq, birinchi navbatda, Misr tarixining yangi va yaqin davrlariga murojaat qilgan. U XIX asrni Misr xalqining mohiyatini belgilab bergen davr deb hisoblardi, davlatni Muhammad Ali va Xediv Ismoil boshqargan davrda yevropacha turmush tarzini qaror toptirishga qaratilgan bir qancha qadamlar tashlangan. Aynan o‘scha paytda zamonaviy sanoat ishlab chiqarishiga poydevor qo‘yildi, G‘arb uslubidagi hukumat tuzildi va shaharlardagi kundalik hayot Yevropanikiga yaqinlashdi. Shu bilan birga, Salama Muso ta’kidlaganidek, G‘arb tomonga qaratilgan harakatda hozirgi bosqichda ba’zi qiyinchiliklarga duch kelindi. Uning fikricha, asosiy muammo shundaki, Nil vodiysining ahli o‘z odaticha

<sup>8</sup> حسين، طه. مستقبل الثقافة في مصر [أكبر ثقافة في مصر]. القاهرة: في المعرفة، 2015. ص. 18.

<sup>9</sup> Sobirov E. K. Literaturno-esteticheskiye konsepsii Taxa Xuseyna (1889–1973) // Nauka. 2012. № 2. S. 47.

<sup>10</sup> حسين، طه. مستقبل الثقافة في مصر [أكبر ثقافة في مصر]. القاهرة: في المعرفة، 2015. ص. 98.

mamlakatning geografik joylashuvidan kelib chiqib, o‘zlarini hamon Sharq ցivilizaცiyasiga mansub deb biladilar. Salama Muso bunday yondashuvni nafaqat noto‘g‘ri deb, balki jamiyatning keyingi taraqqiyoti uchun xavfli deb ham hisoblaydi. U shunday deb yozgan edi: “Bizning sharqliklar ekanligimizga ishonishimiz biz uchun haqiqiy kasallikka aylandi, kasallikning esa asoratlari bo‘ladi”<sup>11</sup>. Salama Muso ehtimol tutilgan “asoratlar” qatorida misrliklarni an’anachilar orasida tarqalgan G‘arbning hamma narsasidan nafratlanish, shuningdek, bugungi xatarlarga javob sifatida eskirgan Sharq amaliyotlaridan foydalanish noto‘g‘ri bo‘lishi haqida ogohlantirgan.

Livan ijodkor ma’rifatparvarlari orasida XXI asr boshlarida qonli arab-isroil mojarolarini ham, 1968–1980-yillardan 2006-yilgacha Livanda bo‘lgan dahshatli fuqarolar urushini ham boshidan o‘tkazgan avlodning xavotirini aks ettiruvchi ovozlar tobora ko‘proq yangradi. Bugungi globallashgan dunyoning deyarli barcha jiddiy mojarolariga jalb etilgan ko‘p konfessiyali kichik mamlakatning tashvish-u xavotirlari hozirgi Livan faylasuf-sotsiologi va madaniyatshunosi Suhayl Farahning asarlarida eng aniq aks ettirilgan.

U o‘zining “Madaniyatlar muloqoti yoki to‘qnashuvi: holat yoki umid” asarida shunday yozadi:

“Globalizmni ifodalovchi asosiy kuchlarning dunyoda iqtisodiyot, madaniyat va xulq-atvorning yagona modelini joriy etishga qaratilgan jadal urinishlariga qaramay, global maydonda quyidagi eng muhim hodisalarda namoyon bo‘layotgan ziddiyatli dualizm kuchayib borayotganini ko‘ryapmiz:

a) G‘arb va Sharq davlatlari o‘z aholisini vatanlarida ushlab qolishga qattiq urinayotganlariga qaramay, kambag‘al Janub mamlakatlaridan “oltin milliard” jamlangan boy Shimol mamlakatlariga muhojirlar oqimi kuchayib borayotganini ko‘rmoqdamiz. Mazkur muhojirlar oqimi nafaqat o‘z vatandoshlariga, balki muhojirlar o‘z xohishi bilan bir qismiga aylangan farovon jamiyatlarga ham son-sanoqsiz ijtimoiy va madaniy muammolarni yuzaga keltiradi va keltirmoqda.

b) keljakka nisbatan ishonchsizlik va o‘z xavfsizligidan xavotir so‘nggi paytlarda aholisi nisbatan tinch yashagan boy davlatlarning eshiklarini qoqmoqda. Butun dunyo jamiyatga ham, uning a’zolariga ham chinakam xavf tug‘dirayotgan terrorizm hodisasiga duch kelmoqda. Xayoliy emas, balki chinakam terrorizm davlatlar va butun mintaqalar xavfsizligiga putur yetkazmoqda”<sup>12</sup>.

## XULOSA

<sup>11</sup> موسى سلامة. اليوم والغد. القاهرة: الهنداوي، 2019. ص. 135–136.

<sup>12</sup> Фарах, Сухейл. Сивилизации и религии: вопросы настоящего и будущего. Издание Международного Института Питирима Сорокина – Николая Кондратева. www.инеснет.ру 2016 г. С. 18.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

Arab ma'rifatparvarlari ko'p asrlar davomida fan, madaniyat va jamiyat taraqqiyotida muhim rol o'ynadilar. Arab ցivilizaçiyasi tarixidagi ko'plab muhim yutuq va o'zgarishlar ularning hissasi bilan bog'liq: tarixning o'rta asrlardan to hozirgi kungacha bo'lgan barcha bosqichlarida arab ma'rifatparvarlari fan, madaniyat va ijtimoiy-siyosiy fikr taraqqiyotida hal qiluvchi rol o'ynagan. Olim va mutafakkirlar arab-musulmon ցivilizaçiyasining "oltin asrida" uning gullab-yashnashiga sharoit yaratdilar.

Nahda davri ma'rifatparvarlari an'anaviy jamiyatni modernizatsiya qilishga yo'l ochdilar. Yozuvchi va faylasuflar Yangi davrda milliy ozodlik kurashiga boshchilik qildilar. Arab ma'rifatparvarlarning nihoyatda katta aqliy sa'y-harakatlarisiz na o'rta asr arab-musulmon madaniyatining ulkan yutuqlarini, na XIX–XX asrlarda uning tiklanishini va na arab xalqlarining mustaqillikka erishishini tasavvur etib bo'lmaydi. Ma'rifatparvarlarning fidoyiligisiz arab mamlakatlarining mustamlakachilik zulmidan qutulishi va mustaqillikka erishishi qiyin kechgan bo'lardi.

Arab ma'rifatparvarlarining shakllanish jarayonini o'rganish va ularning milliy jamiyatning aqliy rivojlanishidagi rolini aniqlashda eng buyuk ma'rifatparvarlarning aholi dunyoviy bilimlarini oshirishda va zamonaviy bilimlarni tarqatishda tutgan o'rnini tahlil qilgan mualliflarning tadqiqotlari katta qiziqish uyg'otadi. Islohotchilik g'oyalarining tarqalishi milliy ozodlik harakati mafkurasining paydo bo'lishi va arab mamlakatlari aholisida vatanparvarlik tuyg'ularining kuchayishi bilan kechdi. Arab xalqlarining milliy g'oyasi, madaniyati va o'ziga xosligini saqlab qolishda ma'rifatparvarlar asosiy rol o'ynagan va o'ynamoqda. Ma'rifatparvarlar arab jamiyati taraqqiyoti va modernizatsiyasining harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan va shunday bo'lib qolmoqda.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Левин З.И. Развитие общественной мысли на Востоке. Колониальный период. XIX–XX вв. М.: Наука, 1993. Стр. 26.
2. Левин З.И. Рыцарь свободной мысли. М.: ИВ РАН, 1998. Стр. 36.
3. Манхейм К. Эссе о социологии культуры // Манхейм Карл. Избранное. Социология культуры. М.–СПБ., 2000. С. 95.
4. Мартынов В.С. Конфликт идентичностей в политическом проекте модерна: мультикультурализм или ассимиляция? // Идентичность как предмет политического анализа. Сборник статей по итогам Всероссийской научно-теоретической конференции (ИМЭМО РАН, 21–22 октября 2010 г.) / Отв. ред. И. С. Семененко, Л. А. Фадеева. М.: ИМЭМО РАН, 2011. С. 36–42
5. Межуев В.М. История. Цивилизация. Культура. Опыт философского истолкования. СПбГУП. Санкт-Петербург. 2011г. С-440. 21 стр.
6. Собиров Э.К. Литературно-эстетические концепции Таха Хусейна (1889–1973) // Наука. 2012. № 2. С. 47.

7. Фарах Сухейль. Цивилизации и религии: вопросы настоящего и будущего. Издание Международного Института Питирима Сорокина – Николая Кондратьева. www.inesnet.ru 2016 г. с. 18.
8. Hourani A., Shehadi N. (eds.) The Lebanese in the World: A Century of Emigration. / Center for Lebanese Studies. London, 1992. 68 pp.
9. محمد برادة. مثل صيف لن يتكرر. وزارة الثقافة - الهيئة العامة لقصور الثقافة. 1999م. ص 235-37.
10. حسين، طه. مستقبل الثقافة في مصر [أكبر ثقافة في مصر]. القاهرة: في المعرفة، 2015. ص.
11. موسى سلامة. اليوم والغد. القاهرة: الهنداوي، 2019. ص. 135-136.